

This is not registered version of TotalDocConverter
Kitobni sonidagi bir tomasni muallifdan deb yozib, unga taqdim etdim. Uning ko'zlari porlab ketdi. Meni quchoqlab oldi.

Qo'llarimni uzoq qisib turdi.

- Tabriklayman. Tabriklayman. Juda xursandman. Ijodingizga baraka... derdi hayajonlanib. Kitobni varaqladi.

- O'h-ho'. Zo'r, zo'r. Jildini qarang-a. Qanday chiroyli. Rasmlari ham tiniq chiqibdi. Varaqlari oppoq qog'ozdan ekan. He, yashang.

Kam bo'mang. G'ayrat qiling. Buni shu bugunoq o'qib chiqaman. rahmat..

Uning maqtoovlaridan qanot chiqarib uchdim. O'zimda yo'q xursand bo'lib, buning kabinetiga kirdim. Allakimga idora hujjatlarining kseronusxasini sotib, narxiga tortshiib turgan ekan. Kitobimning bir donasini bunga ham "Muallifdan" deb yozib, uzatdim. Buning ko'zlari ham chaqnaq ketdi. Bir menga, bir kitobga tikilarkan, qovoq-tumshug'i osildi. Ko'zoynagini taqib, kitobni varaqladi:

- Ixm. Brashurangiz necha pulga chiqdi?

Aygdim. Bu labini burib qo'ydi.

- O'h-ho'. Rosa qimmat-ku? Endi buni qanday sotasiz?

- O'rtoklar yordam berishadi...

- Ancha foyda qilsangiz kerak. Boy bo'lib qolasiz.

- To'g'risi, meni ma'naviy tomoni ko'proq qiziqtiradi.

He-e, gapda, bu kitob varaqlashda davom etdi: Jilti uncha yaxshi chiqmabdi-ya. Rasmlari ham xira. Qog'ozi uchinchi sortmi deyman... Ye. Manovi yerda bitta vergul qolib ketibdimi. Ana. Bu noto'g'ri...

U noyob narsa topib olgandan birdan xursand bo'lib, qo'lini bigiz qilganicha, ma'nodir ta'kidladi:

Bu no-to'g'ri-i. Xato!

So'ng beo'xshov tirjaydi:

- Bo'pga. Tashlab keting. Tekshirib qo'yaman. Tanqidiy fikrlar biddirib yozsam xafa bo'maysiz-da. Xix-xix-xi-xi-xi...

- Bemalol. Sshday odamning fikri bizga qadrlı.

Buning oldidan qanotiga o'q tekkan qushday bo'lib chiqdim. Unisi oddiy til-adabiyot o'qituvchisi, bunisi esa tuman gazetasining muxbiri edi.